

Ustyurt platosi janubiy hududlarining noyob hayvonlari

O'zR FA Zoologiya instituti tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ustyurt platosi janubiy hududlari faunasini o'rganish maqsadida ekspeditsiya uyushtirildi.



Sariqamish ko'lining sharqiy qirg'og'i buylab joylashgan chinklar



Ustyurt palatosidagi jayronlarning kichik populyatsiyasi

Ekspeditsiya davomida Ustyurt platosining janubiy hududlarida joylashgan Sariqamish ko'lining shimoliy,

sharqiy va g'arbiy qirg'og'i bo'ylab va u yerda joylashgan chinklarda, Sho'rja kotlovani atrofida va Qulantaqir geografik punktlarida ilmiy izlanishlar olib borildi.



Sariqamish ko'lidagi flamingo galasi



Sariqamish ko'lida uchragan oqqushlar galasi



Sariqamish ko'lining sharqiy qirg'og'i buylab joylashgan chinkda uyalagan jo'rchi qushi





Tadqiqot jarayonlari

Tadqiqot ishlari davomida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan jayron (*Gazella subgutturosa* G)larning kichik populyatsiyalari va qulon (*Equus hemionus* P)larning 60-70 boshli katta podasi aniqlandi hamda ularning bioekologik xususiyatlari o'rganildi.

Sariqamish ko'lining sharqiy qirg'og'ida joylashgan chinkning yoriqlarining biridan yo'qolib ketish xavfi ostida turgan Ustyurt quyi (*Ovis vignei* arkal E) ning tunash joyi va izlari topildi.